



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI

YANGI DAVR — YANGI O'QITISH, YANGI USLUB, YANGI QAT'IYLIK

Farmonova Nargiza Abdurashidovna
Toshkent shahar Chilonzor tumani 200-sonli IDUM oliy
toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



Jahonda bo'lmasa muallim agar,
Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar.

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganj ila.



ZAMONAVIY METODLAR

01

1 daqiqa
metodi

02




G'aroyib
shakllar metodi

03

Joylar bilan
almashsinlar

04

A4 format
metodi



ZAMONAVIY METODLAR

“1daqiqalik eslatma” texnikasi



Dars so‘ngida 1 daqiqa vaqt bering va shunday deng:

“Bugungi darsdan eng esda qolgan bitta ma’lumotni yozing”.


Bu usul:

O‘quvchining fikrlashini uyg‘otadi.

Asosiy ma’lumotni mustahkamlaydi.

Sizga dars qanday qabul qilinganini ko‘rsatadi.

Kichik harakat – katta foyda.



G'AROYIB SHAKLLAR



O'quvchilardan 3,4,5,6,7 tadan bo'lib guruhlarga bo'linib olishlarini so'raymiz va
Bir nafar o'quvchidan tashkil topgan guruhdan uchburchak shaklini yasashlarini,
Ikki nafar o'quvchidan tashkil topgan guruhdan to'rtburchak shaklini yasashlarini,
Uch nafar o'quvchidan tashkil topgan guruhdan beshburchak shaklini yasashlarini,
To'rt nafar o'quvchidan tashkil topgan guruhdan oltiburchak shaklini yasashlarini,
Besh nafar o'quvchidan tashkil topgan guruhdan dumaloq(aylana) shaklini yasashlarini so'raymiz va ularga
quyidagicha vazifani berishimiz mumkin.

Har bir o'quvchi bittadan so'z topishi shart va shu so'zlarni bog'lab kichik matn yoki hikoya tuzadilar. O'quvchilar
tomonidan topilgan barcha so'zlar ishtirok etishi kerak bo'ladi.

JOYLAR BILAN ALMASHSINLAR

Topshiriq uchun quyidagi belgilar aks ettirilgan topshiriqlar bo'lishi mumkin.

Masalan,

1. Joylar bilan almashsinlar, agar kimda Samsung rusumli telefon bo'lsa;
2. Joylar bilan almashsinlar, agar kimning soati bo'lsa;
3. Joylar bilan almashsinlar, agar kimning akasi bo'lsa.

Ushbu jarayonni dars davomida qo'llash ishtirokchilarning jismoniy, ruhiy va aqliy tetiklanishiga, faollashishiga va ularning darsga diqqati, ishtiyoqi oshishiga yordam beradi. Bu kabi enerjayzerlarni darsning so'nggi soatlarida, masalan, 5-6-soatlarda, yoki ertalab birinchi soat darslarida o'tkazish yaxshi samara beradi.



A4 format metodi

Bu metodda “O‘tgan darsni yodga oling va siz uchun muhim bo‘lgan ma‘lumotni bir qator qilib yozing” degan vazifa beriladi. Birinchi qatordagilar yozib bo‘lgandan so‘ng ketma-ket ikkinchi, uchinchi va keying partada o‘tirgan o‘quvchilar to oxirgi partadagi o‘quvchiga qadar yozishlari ta’kidlanadi. A4 qog‘oziga yozilayotgan ma‘lumotlar takrorlanmasligi talab etiladi. Bu yerda muhim jihat shuki, o‘quvchi o‘z fikrini yozishdan oldin o‘zidan oldingi yozilgan ma‘lumotlar bilan tanishib chiqishi va shundan so‘ng yangi ma‘lumot yozishi kerak bo‘ladi. Bu jarayonni musobaqa tarzida tashkil qilinishi jarayonni tezlashishiga va yanada samaraga erishishimizga yordam beradi. Vazifa yakunlangach barcha ma‘lumotlarni oxirgi partada o‘tirgan o‘quvchi o‘qib berishi talab etiladi.



O'QITISHNING YANGI USULLARI





Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Kahoot, Blooket, Quizizz, Wordwall kabi interaktiv platformalar darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu saytlar orqali o'qituvchi mavzuga oid testlar, o'yinlar va mashqlarni tayyorlab, o'quvchilarning faolligini oshiradi hamda bilimlarni mustahkamlashga erishadi.

Bu platformalar dars jarayonini raqamlashtirish, o'quvchilarning individual yondashuv asosida ishlashini ta'minlash, natijalarni real vaqtda kuzatish imkonini yaratadi. Natijada o'qituvchining darsni boshqarish sifati oshadi, o'quvchilar esa bilimlarni o'zlashtirishda ko'proq qiziqish va ishtiyoq bilan qatnashadi. Shu bois, zamonaviy saytlar orqali o'qitish jarayoni nafaqat samarali, balki innovatsion yondashuvlarga asoslangan bo'ladi.



Kahoot



Kahoot dasturi o'quvchilarga turli fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni interaktiv tarzda o'rganishga yordam beradi. Bu platforma asosan test, viktorina, so'rovnoma va o'yinlar orqali ta'lim jarayonini tashkil qilishga mo'ljallangan.

Kahoot orqali quyidagilarni o'rganish va rivojlantirish mumkin:

Mavzularni mustahkamlash – O'rganilgan bilimlarni testlar orqali qayta eslab qolish.

Tez fikrlash va javob berish – Cheklangan vaqt ichida savollarga javob berish orqali refleks va e'tiborni oshirish.

Jamoadada ishlash – Guruhli o'yinlar orqali hamkorlikda ishlashni o'rgatadi.

Raqobat va motivatsiya – Reyting va ball tizimi orqali o'quvchilar o'zaro raqobatlashadi, bu esa o'rganishga qiziqishni oshiradi.



BLOOKET



Blooket — bu o'qituvchilar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan interaktiv ta'lim platformasi bo'lib, bilimlarni o'yinlar orqali mustahkamlashni maqsad qiladi.

U turli mavzular bo'yicha testlar, viktorinalar va o'yin shaklidagi mashg'ulotlar orqali o'quvchilarni faollikka undaydi.

Blooket dasturining asosiy afzalliklari:

- 1.O'yin orqali o'qitish – Savollarga to'g'ri javob berib, virtual o'yinlarda ishtirok etiladi. Bu o'quvchilarda raqobat va motivatsiyani oshiradi.
- 2.Mavzuni mustahkamlash – Turli fanlar bo'yicha tayyorlangan testlar orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlab boradi.
3. O'quvchilarning diqqatini jalb etish – Rang-barang dizayn, ovozli effektlar va o'yinga o'xshash muhit dars jarayonini qiziqarli qiladi.

FANLARARO O'ZARO BOG'LIQLIK



Ona tili va adabiyot —milliy o'zlikni anglash, madaniyatni o'rganish va boshqa fanlarni chuqurroq tushunishda muhim asosdir. Bu fanlar orqali o'quvchi tafakkur, muloqot va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.





Geografiya: Asarlarda til va joy nomlari orqali o'rganiladi.

Tarix: Adabiy asarlar tarixiy davrni aks ettiradi.

Psixologiya: Qahramonlarning ruhiy holatlari tahlil qilinadi

Falsafa: Adabiyot orqali inson, hayot va borliq haqida fikr yuritiladi.



**E'tiboringiz
uchun rahmat !**